

Uzbekistan Airways Namangan-Nijnevartovsk- Namangan yoʻnalishida birinchi aviaqatnovni amalga oshirdi

2023 1 Aprel

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi “Sharqiy xab” doirasida Namangandan parvozlar geografiasini kengaytirmoqda. Joriy yilning 31-mart kuni aviakompaniya Namangan-Nijnevartovsk-Namangan yoʻnalishida ilk parvozni amalga oshirdi. Endilikda Namangandan Rossiyaning Nijnevartovsk shahriga muntazam aviaqatnovlar bir marotaba – haftaning juma kunlari amalga oshiriladi.

Namangandan uchish mahalliy vaqt bilan (Namangan) soat 16:00 da

Nijnevartovskga kelish mahalliy vaqt bilan (Nijnevartovsk) soat 19:45 da

Nijnevartovskdan uchish mahalliy vaqt bilan (Nijnevartovsk) soat 21:45 da

Namanganga kelish mahalliy vaqt bilan (Namangan) ertasi kuni soat 01:35 da

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, “UzAirways” mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.